ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC JOURNAL**

2022-yil, 2-son (132) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Iqtisodiyot, O'qitish metodikasi

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor**
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G'ULOMOV - O'zFA akademigi
A. SAGDULLAEV - O'zFA akademigi
M. MUXIDDINOV - fil.f.d., professor (SamDU)
B. E. ERGASHEV - t.f.d., professor (SamDU)
B. S. G'OYIBOV - t.f.d., professor (SamDU)
S. K. KARIMOV - fals.f.d., professor (SamDU)
J. Ya. YAXSHILIKOV - fals.f.d., professor (SamDU)
N. U. ARABOV - i.f.d., professor (SamDU)
Sh. A. HASANOV - fil.f.d., professor (SamDU)
S. A. KARIMOV - fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV - ped.f.d., professor (SamDU)
M.M. MAXMUDOVA - ped.f.d., professor (SamDU)
NAZIF SHAHRANY - Indiana universiteti professori (AQSh)
MUSTAFA UGURLU - профессор (Муғла университети, Туркия)
N.T.NURULLAXODJAYEVA - professor (Moskva Davlat universiteti, Rossiya)
TAMIR KLEIN - Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil)
HIROAKI HUZIIE - Osaka universiteti professori (Yaponiya)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

TARIX / HISTORY

Азимбаева Ш.А.
Внешняя политика великобритании в центральной азии в торгово-экономической сфере 4-9

Temirova Sh.V.
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida rossiya imperiyasi tomonidan aholini ko'chirish siyosatida transformatsion jarayonlar 10-16

Buriyev Z.T.
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan kaspiyorti viloyatiga aholini ko'chirish siyosati 17-20

Baratov H.
Turk xoqonligi davrida Kesh hududida kechgan siyosiy vaziyatidagi ayrim masalalar 21-24

Shukurov S.J.
Kesh shahrining tarixiy topografiyasi 25-31

Мухамедов Ш.Б.
«Туркестанский сборник» - как феномен научной жизни Ташкента и Центральной Азии 32-36

Xalilova Z.E.
XX asr boshida Samarqand ta’lim tizimida o’quv darsliklar holati 37-41

Jamolova D.
Turkiston jadidchilik harakatida xotin-qizlarning tutgan o'rni 42-45

FALSAFA / PHILOSOPHY

Ergashev S.M.
Turkiston ma’rifatparvarlarining ayanchli qismati 46-50

Xonimov Sh.
O'zbekistonda yoshlar siyosiy va huquqiy madaniyatini rivojlantirishga oid qarashlar 51-54

Karimov S.
Komil insonni tarbiyalashda tasavvuf ta’limotining o‘rni va roli 55-59

Negmatova Sh.Sh.
Nikollo Makiavelli va Muxammad Qozining siyosiy qarashlari (qiyosiy tahlil) 60-63

Gulamova M.T.
Axmad Ziyouddin Al- Kumushxonaviyning ilmiy merosida valiylik karomatlari haqida 64-67

Djurakulov X.
Ekoturizmni rivojlantirishda ekologik jamoat tashkilotlarining ustuvor asoslari 68-72

Shakarov J.
Raqobat jarayoniga yoshlarda axloqiy munosabatni shakllantirish 73-77

Xudayqulov D.
“Temur Tuzuklari”da axloqiy me'yorlar talqini 78-82

Mirzayeva F.A.
Ahmad Sirhindiyning “Maktubot” asarida tasavvuf ta’limotiga doir masalalarning bayoni 83-87

Abduazimova Z.A.
Environmental ethics and its forms of manifestation in society 88-93

Bekmurodova G.
Sotsial destruksiya va uning asosiy xususiyatlari 94-97

Tulyayev A.I.
Axloqiy bilimlarning ijtimoiy zaruriyatga aylanish prinsiplari 98-101

Shadimetova G.M.
Milliy bayramlarda falsafiy-ma'naviy tushunchalar mazmuni 102-105

Nomozov X.Sh.
O'smirlar orasida ijtimoiylashuvda internet ta'siri 106-110

Akramov M.M.
O'zbekistonning yoshlarga doir davlat siyosatida kinematografiyaning ahamiyati 111-118

Tanikulov J.A.
Jamoatchilik fikriga ta'sir etuvchi media axborot elementlari 119-123

Mamatov Z.M.
Globallashuv jarayonida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash muammolari 124-129

HUQUQSHUNOSLIK / JURISPRUDENCE

Muqimov Z.Y. "Temurshunoslik" fanida Amir Temurning jahon tamadduniga qo`shgan hissasi masalalari 130-133

SOTSIOLOGIYA / SOCIOLOGY

Tagiyeva G.G.
Ijtimoiy ta`minot tizimining ilmiy–nazariy asoslari 134-138

O'QITISH METODIKASI / TEACHING METHODOLOGY

Raupova M.H.
Oliy ta'limda kvaziprofessional faoliyat: muammolari va istiqbollari 139-143

Raximov N., Ro'ziyev M.
Taqqoslama va uning ba'zi murakkab masalalarni yechishga tatbiqlari 144-148

Мирфайзиева К.Ю., Хайдарова И.А.
Онлайн-уроки в условиях пандемии 149-152

Tashmatova R.V., Muhamadiyev N.Q., Muhamadiyeva X.Q., Tug'izov Y.M., Samiyev A.A.
Kimyoviy masalalarni o'ziga xos tomonlari va ularni echishda matematik usullardan foydalanish 153-159

Муллажонова Н.
Аппликация как всестороннее развитие детей дошкольного возраста на занятиях изобразительной деятельности 160-164

Ummatov A.A., Ashurkova S.F.
Milliy reyting tizimi O'zbekiston oliygohlarining xalqaro zamonaviy voleybolga xos himoya harakatlarini modellashtirilgan tartibda shakllantirish 165-168

Mualliflarga

UDK:1:17

RAQOBAT JARAYONIGA YOSHLARDA AXLOQIY MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH

J.Shakarov
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada raqobat jarayoniga yoshlarlarni tayyorlash, ularda axloqiy munosabatni shakillantirish, yoshlarni raqobat jarayoniga tayyorlashda axloqiy tarbiyaning o'rni, muommo va yechimlari to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Raqobat, axloqiy tarbiya, axloq, ma'naviyat, yoshlar, yaxshi xulq, adolat, axloqiy me'yorlar.

Formation of a moral attitude at the youth to the competition process

Abstract. The article provides information on the role, problems and solutions of moral education in preparing young people for the competitive process, the formation of their moral attitude, the preparation of young people for the competitive process.

Keywords: Competition, moral education, morality, spirituality, youth, good behavior, justice, moral norms.

Формирование нравственного отношения у молодежи к соревновательному процессу

Аннотация. В статье представлена информация о роли, проблемах и решениях нравственного воспитания в подготовке молодежи к соревновательному процессу, формировании у них нравственного мироощущения, подготовке молодежи к соревновательному процессу.

Ключевые слова: Конкуренция, нравственное воспитание, нравственность, духовность, молодежь, хорошее поведение, справедливость, нравственные нормы.

Hozirgi kunda jahonda glaballashuv jarayoni ketayotgan bir davrda yoshlarimiz o'rtasida sog'lom raqobatni tashkil qilish, raqobat jarayonida esa axloqiy munosabatlarni o'rnatish, ularni axloq tamoyillari asosida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bizga ma'lumki, raqobat deganda tabiat va jamiyatda tirik mavjudotlarning yashash uchun kurash jarayonidagi bellashuv, tortishuv, musobaqa, munozara, moslashuv kabi xatti-harakatlarining muayyan majmuini o'z ichiga oladi. Hozirgi glaballashuv jarayonida dunyo davlatlar o'rtasida madaniyat, fan-texnika, iqtisodiyot kabi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'zaro raqobat jarayoni yuz bermoqda. Bu esa Vatanimizning ertangi kuni bo'lgan yoshlarni har tamonlama raqobatbardosh kadr qilib tayyorlashni taqoza etadi. Buning uchun esa avvolo biz yoshlarimizni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashimiz zarur bo'ladi.

Ma'naviyat tushunchasi axloq tushunchasiga yaqindir. Axloq asosan etikaning o'rganish sohasi hisoblanadi. Gumanitar va ijtimoiy fanlar tarixida ushbu tushunchaga bir necha nuqtai nazar mavjud. Ma'lumki, har bir insonning ma'naviy qiyofasining, jumladan axloqining shakllanishi va takomillashuviga ijtimoiy-iqtisodiy sharoit hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatning ma'naviy hayoti, ya'ni ijtimoiy g'oya va qarashlar, tasavvurlar va tushunchalar, his va tuyg'ular jamiyat moddiy hayoti sharoitlarini aks ettiradi. Chunki, kishilarning ma'naviy hayoti ham jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Adolat axloqni hosil qiladigan eng muhim aloqa va munosabtlar yig'indisi bo'lib, tenglikning to'g'ri, haqiqiy va taqdirlashning zaruriy o'lchovidir. U jamiyatdagi mavjud axloqiy munosabatlarni tartibga solib turadi. "Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish" [1], - deb ta'kidlaydi birinchi Prezdentimiz I.A.Karimov, - O'zbekistonda davlat va jamiyatning muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiy qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda etilgan" o'rtasidagi yaqinlik ishonch, hurmat, samimiylik, burch, talabchanlikdan yoshlarning ichki shakllanishiga ta'sir etadigan muhim omillardandir. Jamiyat rivojlangan sari ma'naviy omillarning ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati ortgani sari oiladagi tarbiyaga e'tibor ham kuchayib boradi. Axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning

tizimliligi, mustahkam axloqiy his-tuyg‘u va hislatlarni shakllantirish, o‘quvchilar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo‘lgan hurmat-e’tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

O‘zbekistonda xalq ma’naviy-axloqiy merosining jamiyat hayotidagi o‘rni masalasiga yangicha qarash jamiyatning tadrijiy rivojlanishi uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligi tobora ayon bo‘lib bormoqda. “Bizning qadimiy va go’zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo’lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e’tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar etishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog’liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko’tarilishida ona yurtimizda tug’ilib kamolga etgan ulug’ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g’urur va iftixor bag’ishlaydi.[2]” Shuning uchun ham qadim davrlardan to hozirgi zamonamizgacha yaratilib, avlodlarning ezgu ishlariga xizmat qilib kelgan boy axloqiy, siyosiy, huquqiy merosimizni, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o‘rganib, xalqqa yetkazish, kelajak asoslarini yaratishga xizmat qildirish muhim vazifalardan biri bo‘lib, ulug’ allomalarimizning axloq, xulq-odob, ta’lim-tarbiya masalalariga oid asarlari, dono va ibratli so‘zlari, pand-nasihatlari yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Birinchi Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida inson va jamiyat ma’naviyatining shakllanishi, rivojlanishi hamda uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni masalalari ilmiy tomondan batafsil yoritib berilgan. Ma’naviyat buyuk ne’matdir. Inson ana shu ne’mat tufayli bir-birini e’zozlaydi, vijdonan mehnat qiladi, qobiliyati va iste’dodini ishga solib, o‘zini o‘rab turgan tashqi muhitni o‘zgartiradi. Shuning uchun ham Prezident 1996- yil 4-sentyabrda “Ma’naviyat va ma’rifat” Respublika jamoatchilik markazi rahbariyati hamda boshqaruv a’zolari bilan bo‘lgan uchrashuvda ma’naviyatning eng asosiy himoyachisi Respublika Prezidenti ekanligini ta’kidlab, “Ma’naviyatda insonning iymoni, e’tiqodi, axloqi, hayotning ma’nosini qanday tushunishi, ichki dunyosi namoyon bo‘ladi. Vatan, xalq oldidagi burchni egallash ham yuksak ma’naviyat belgisidir. Ma’naviy barkamol inson — o‘zining savobli ishlari bilan kechirgan hayotidan rozi ketadi”[3] ma’naviyat sohasida bildirgan bu fikri barcha yozgan asarlarining mazmuniga singdirib yuborilgan.

Asrlar mobaynida shakllanib kelgan axloqiy qarashlar va ularning ijtimoiy-ma’naviy ildizlari, jahonda va mintaqada axloqshunoslik ilmining turli yo‘nalishlari va ularda ma’naviyatga oid muammolarning in’ikos topishini o‘rganish orqali O‘zbekistonda ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalarini jahon axloq ilmi yutuq va kamchiliklarini qiyosiy tahlili va xalqimiz ma’naviy-axloqiy merosiga tayangan holda hal qilish yo‘llarini izlab topish va ularni hayotga tatbiq etish ushbu fan yo‘nalishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shu asosiy maqsadning ijrosi yo‘lida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

- Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning «Axloq - ma’naviyatning o‘zagi» deb bergan ta’rifining’ mazmun-mohiyatini anglab etish;
- Millatning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi milliy taraqqiyotning muhim omili ekanligini, uning sabablari va oqibatlarini tushunish;
- Mustaqil O‘zbekiston davlati tomonidan yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yaxshilashga qaratilgan amaliy tadbirlar haqida ma’lumot hosil qilish;
- Milliy g’oyani shakllantirish va fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning o‘rnini aniqlash;
- Jahon fanida ma’naviyat va axloq sohalarining o‘rganilish darajasi, bu sohada jahon fani erishgan yutuq va kamchiliklarni ko‘zdan kechirish;
- Milliy ma’naviyatimiz tarixida axloq ilmiga oid yaratilgan asarlar va ularning mazmun-mundarijasi, Sharq mutafakkirlari ijodiy faoliyatida axloq va axloqiy tarbiya masalalari, ijtimoiy hayotning ma’naviy-axloqiy negizlari xususidagi qarashlarini ilmiy-nazariy tahlil qilib, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib ko‘rsatish;
- Axloqiy fazilatlar va ma’naviy kamolot omillarini tadqiq etishda o‘tmish allomalarimizning xizmatlarini anglab etish va ular erishgan yutuqlarning bugungi kun uchun ahamiyatini, ma’naviy meros namunalaridan jamiyatning ma’naviy-axloqiy negizlarini shakllantirishda to‘g’ri foydalanishni o‘rganish;
- Ma’naviyat, madaniyat va axloqning o‘zaro nisbatlari, axloq va uning fuqarolik jamiyatining shakllanishi va taraqqiyotidagi ahamiyati, ma’naviyat va axloq sohalarining o‘zaro umumiy va farqli jihatlari, ularning ilmiy-qiyosiy ta’riflanishi, shaxs ma’naviyatining asosiy jihatlari va yetakchi axloqiy

fazilatlar, bosh ma’naviy qadriyatlarning shaxs axloqida o‘ziga xos akslanishi kabi masalalarni batafsil tahlil etish;

- Mustaqil O‘zbekistonda ma’naviy va axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari, inson va jamiyat hayotida ma’naviyat va axloqning o‘rni, insonning ma’naviy-axloqiy holatiga iqtisodiy va siyosiy omillarning ta’siri, shaxsninig ma’naviy-axloqiy tarbiyasida din va ijtimoiy fanlarning roli, bugungi kunda yosh avlodning ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga ta’sir o‘tkazayotgan turli omillar va ularning oqibatlarini o‘rganish;
- Yosh avlod ma’naviy-axloqiy tarbiyasida mumtoz milliy san’at va adabiyotimiz, jahon madaniyati va san’atining yuksak namunalaridan unumli foydalanish shakl va usullari, ma’naviy-axloqiy tarbiyada oila va jamiyat munosabatlari, oila, mahalla, ta’lim tizimining millat ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi ahamiyatiga oid eng dolzarb masalalarni tadqiq etish va tavsiyalar berish.

Bu vazifalarni amalga oshirish asnosida yoshlar o’rtasida raqobani axloqiy jihatdan sog’lomlashtirishimiz mumkin bo’ladi.

Abdullo Avloniy o’zining Turkiy guluston yohud axloq asarida “Axloq deydi- Insonlarni yaxshilikg'a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur.[4] Axloq ilmini o'qub, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o'zidan xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O'z aybini bilub, iqror qilub tuzatmakg'a sa'y va ko'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram afandimiz: “Mezon tarozusiga qo'yiladurgan amallarning ichida yaxshi xulqdan og'irroqi yo'qdur. Mo'min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro'za tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar”,- deb o’z fikrlarini bildirib o’tganlar.

Abdullo Avloniy yana shu kitobida axloqiy tarbiya to’g’risida fikr bildirib, Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidur. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki dars oluvchi-biluvchi, tarbiya oluvchi-amal qiluvchi demakdur. Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zlari ilmlariga omil bo'lub shogirdlarga ham bergan darslarini amal ila chaqushturub o'rgatmaklari lozimdur. Bu ravishi ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilub, mulloyi boamal bo'lurlar.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Eng yomon kishilar ilmiga amal qilmaydurgan kishilar», – demishlar. Agar tarbiya qiluvchi muallim o'zi olim bo'lub amalsiz bo'lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga zo'r ta'siri bo'ladur. «Domlaning o'zi falon joyda falon ishni qildi. Ammo bizlarga qilmanglar, haromdur, deb va'z etadur», deb fikrlarini keltirib o’tgan.

Istiqlol yillarida madaniy, diniy, axloqiy qadriyatlarga nisbatan munosabatning bu qadar ijobiy tarzda o‘zgarishini muayyan sabablari, o‘ziga xos zaruriy jihatlari bor. Chunki, dunyodagi dinlardan birortasi ham xalqlar va millatlarni, odamlarni yomon yo‘lga boshlamaydi, urushu-janjallar chiqarib qon to‘kishlarga, vayronagarchilik va ocharchiliklarga sabab bo‘lishga, millat ajratishga, boshqa diniy mazhabdagilarni kamsitishga da’vat etmaydi, yo‘l qo‘ymaydi. Aksincha, mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli, o‘zaro izzat-e’tiborli, milliy hamkor-hamjihat bo‘lishga undaydi, odamzotni ezgulik tomon boshlaydi. Muqaddas Islom dinining mustaqil O‘zbekiston hayotidagi ahamiyati, uning odamlar ruhiy dunyosiga ko‘rsatib kelayotgan ta’sirini Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Turkiston-press” axborot agentligi muxbirining savollariga javoblaridan ko‘rish mumkinki: “Aytmoqchimanki, biz o‘z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri holda aslo tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o‘zligimizni yo‘qotamiz. Xoh yosh bo‘lsin, xoh keksa bo‘lsin, har bir o‘zbek nimagaki munosabat bildirmasin, albatta uni Yaratguvchining nomi bilan bog‘laydi. Har bir so‘zimizni, ishimizni “Bismilloh” aytib boshlaymiz, yaxshi-yomon kunlarimizda Xudoga shukrona keltiramiz, tavba qilamiz. “Shukur” degan kalomni bilmaydigan biror inson O‘zbekistonda bormikan o‘zi! Bilsangiz kerak, payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom ham “shukur” va “tavba” degan so‘zlarni eng ko‘p ishlatar ekanlar. Tug‘ilganda qulog‘imizga azon aytiladi, oila qurganimizda shar’iy nikoh o‘qitiladi, dunyodan ko‘z yumganimizda

janoza o‘qitiladi. Hatto dindan chuqur xabardor bo‘lmagan odam ham diniy urf-odatlarsiz, islomiy tuyg‘usiz yashay olmaydi”.[5]

Axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo‘yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o‘zgarishlar yuz berdi. Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi, Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o‘zgalar va o‘zining hayoti ma’nosini anglagan holda o‘tkazish kerakligi haqida ko‘plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud.

Bundan tashqari ta’lim muassasasida o‘quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Zero, ta’lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta’limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo‘lib, uning asosiy mohiyati o‘quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo‘lishni, ta’lim jarayonini erkinlashtirishni talab etadi.

Axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta’limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchi shaxsida mas’uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko‘nikmalarini tarbiyasilaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik, ms’uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa hislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Axloqiy tarbiyani tashkil etishda o‘quvchilar xatti-harakatlarida ko‘zga tashlanadigan salbiy odatlar – jamoa joylarida qattiq gapirish, qo‘pol so‘zlarni ishlatish, hissiyotga berilish, o‘ylamay gapirish, ishonli bo‘lmagan hamda, dalillar bilan tasdiqlanmagan voqea-hodisalar haqida fikr yuritish, boshqalarning suhbatini bo‘lish, qo‘lini silkitib gapirish kabilarning bartaraf etib borilishiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Arzimas bo‘lib ko‘ringan, lekin shaxsning kelajak hayot va kasbiy faoliyatni tashkil etishda, muvaffaqiyatga ega bo‘lish yo‘lida, zarurli bo‘lgan bu kabi odatlardan holi bo‘lishda o‘quvchilrga yordam ko‘rsatish o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan sanaladi.

O‘quvchilarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash ularning salbiy hislatlardan holi bo‘lishlariga yordam beradi. Bu esa dastlab o‘quvchilarga xulq-odob me’yorlari va qoidalarini anglash va shaxs ongini shakllantirishga doir metodlar asosida amalga oshiriladi.

Bunga badiiy va ilmiy-ommaviy adabiyotlarni o‘qish, kinofilm va spektakllarni tomasha qilish, maxsus tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifat kunlarida turli mavzularda suhbatlar tashkil etish natijasida axloqiy tushunchalar va xulq-odatlar paydo bo‘la boshlaydi.

Lekin o‘quvchilarni faol, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatga jalb etmasdan turib, axloqning biror turiga mos tarbiyasilab bo‘lmaydi. Bunda mashqlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish asosida shaxsning u yoki bu axloqiy hislati shakllanadi va amaliy faoliyatga aylanadi.

Rag‘batlantirish metodlariga mukofotlash va ma’qullash kiritiladi. Hozirgi davrda yoshlar o‘rtasida tobora ommaviylashib borayotgan “Zakovat”, “Intellektual ring”, “Qizlar davrasi”, “O‘yla, izla, top!” kabi o‘yinlar ham mazmun, ham mohiyati, ham metodik jihatdan o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi da muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish boy milliy madaniy, tarixiy va pedagogik an’analar, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi.

Bu borada tarbiya jarayonida o‘quvchining axloqiy, ijodiy, ma’naviy, jismoniy jihatdan shakllantirishga qaratilgan innovatsion metodlar samarali natijalar beradi. Bunday tarbiyasi o‘quvchilarda voqealar rivojini oldindan ko‘ra bilish, o‘zini real voqelikda anglash, kelgusi hayot yo‘lini to‘g‘ri belgilash, axloq, e’tiqod, ishonch, axloqiy qadriyatlarni to‘g‘ri anglash, ijtimoiy hayotda turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yo‘llaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’kidlanishicha ta’limning mazmuni har bir o‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotiy va dunyoviy demokratik jamiyat baxt-saodati yo‘lidagi yuqori unumli mehnatga barkamol avlod qilib tayyorlash bilan belgilangan[6].

Ta’limning asosiy mazmuni uning vazifalarida oydinlashadi. Birinchi Prezdentimiz Islom Karimov: “Aql zakovatli, yuksak ma’naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo‘yilgan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi”[7],– deb ta’kidlaydi.

Insonnni axloqiy tarbiyalanganligi uning tevarak atrofdagi narsalarga bo‘lgan turli-tuman munosabatlarida namoyon bo‘ladi. U insonning hislarida, kechinmalarida hamda xulq-atvorida ifodalanadi. Shaxsning muhim ma’naviy sifatlari bo‘lgan axloqiy ong hissiyot va xulqni

shakllantirish, vatanparvarlik, O‘zbekiston gerbi, bayrog‘i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan qilinadigan izlanishlarga ongli intizom va boshqa tuyg‘ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridir.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni, avvalo, yosh avlodning amaliy faoliyatlarida – o‘qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari harekterida namoyon bo‘ladi.

Axloqiy tarbiya yosh avlodni to‘g‘ri yo‘nalish olish uchun hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan muhitni (oila, o‘rtoqlari va do‘stlar muhiti) ham hisobga olinib, shaxsning butun hayoti faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning yo‘l va usullari, yosh avlodga axloqiy tarbiya berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi: inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to‘g‘risida keng tasavvur berish.

Axloqiy tarbiya va tasavvurlar, qarash, mulohaza, baho berish kabi tushunchalarni shakllantirishga va shu asosda axloqiy e’tiqodni yuksaltirishga ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni:

- yosh avlodni axloqiy tajribalarini mushohada qilishlari va boyitishlarga yordam berishlari;
- turli manbaalardan axloq to‘g‘risida olingan bilimlarni to‘g‘rilaydi;
- shaxsning o‘zini axloqiy tarbiyalashga zamin yaratadi.
- axloqiy tarbiya va bilim berishni tashkil qilishda yoshlarning yosh hususiyatlarini, ularning shaxsiy hayotiy tajribalarini, axloqiy me’yorlar to‘g‘risidagi xabardorlik darajasini, axloq sohasida o‘zlashtirgan bilimlarining axloqiy talablari bilan munosabatini hisobga olish zarur.

Axloqiy me’yorlar bilimlarning poydevori bo‘lib xizmat qiluvchi dunyoqarashga tayanganda samarali amalga oshiriladi.

Shaxsning axloqiy rivojlanishi axloqiy ehtiyojlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi: mehnatga, muloqotga, bilish qadriyatlarini o‘zlashtirishga, bilish qobiliyatini rivojlantirish va boshqalarga ehtiyoj izlaydi. Bu ehtiyojlar o‘quvchilar faoliyati va munosabatlarining real tajribasida rivojlanadi. Ko‘p qirrali faoliyat jarayonida xatti- harakatning ijtimoiy foydali ko‘nikmalari, axloqiy odatlar, barqaror munosabatlar shakllanadi.

Axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirish insonning bu me’yorlarga tabiiy munosabatidan boshlanadi. Axloqiy me’yorlari buzilgan kishi vijdon azobiga tushadi.

Ruhshunoslarning aniqlashicha, kichik maktab yoshi axloqiy talab va me’yorlarni o‘zlashtirishga moyillikning yuqoriligi bilan harakterlanadi. Bu esa shaxs rivojlanishga o‘z vaqtida axloqiy poydevor qo‘yish imkonini beradi.

O‘smir yoshida yaqin atrof muhitni o‘zlashtirishda muayyan tajriba paydo bo‘ladi, tengdoshlari bilan barqaror aloqalar o‘rnatiladi, o‘z-o‘zini anglash, xususiy shaxsini tasdiqlashga ehtiyoj kuchayadi, o‘smir atrofidagi kishilar namunasiga ergashadi, ideal axtarib, o‘z mavqeini belgilash vositasini tanlashga intiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, axloqiy tarbiyani to‘g‘ri amalga oshirish shaxsning garmonik rivojlanishi, uning axloqiy sog‘lomligi uchun katta ahamiyatga ega. Yoshlar o’rtasida raqobat jarayonida axloqiy munosabatlarni o’rnatmoqchi bo’lsak yoki shakillatirmoqchi bo’lsak, biz avvalo axloqiy ong va axloqiy tarbiyani yoshlarga targ’ib qilishimiz kerak, shakillantirishimiz kerak bo’ladi. Hozirgi kunga kelib yoshlar har bir sohada raqobatlashmoqda desak bo’ladi. Ularga yoshligidan ota-bobolarimizning bir biriga hurmatni saqlagan holda bir mayizni 40 bo’lib yeganligi, boshidan o’tkazgan qiyinchiliklarni hikoya sifatida aytib o’tsak, yoshlarda raqobat jarayonida ham bir biriga hurmatni saqlashni o’rganishadi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-engilmas kuch.81-b
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. -T.: O‘zbekiston, 1997, -B.149.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.,1992.-B .11
5. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. -T.: O‘zbekiston, 1999, -B. 5-6.
6. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risidagi O‘RQ-637-son Qonuni Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr,
7. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. -T.: O‘zbekiston, 2000. – B. 81.